

## **OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA USLUBIY ISHLARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI**

**Alimova Qunduz Oybek qizi**  
Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta'lismuassasalarida uslubiy ishlarni tashkil etish va boshqarish bo'yicha xorij tajribasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** tizim, uslubiy ishlar, ta'limgiz, uslub va tamoyil

Xitoy ta'limgizning tarixi juda uzoqdir, uning ildizi qadimiy davrlarga borib taqaladi. Xitoyda dastlabki maktablar eramizdan ancha ilgari vujudga kelgan. Qadimgi Xitoy faylasufi va pedagogi (eramizdan oldingi V-IV asrlarda yashagan) Kun Tszi (Konfutsiy) qator ilg'or pedagogik g'oyalarni olg'a surgan va xususiy o'qitishga asos solgan.

Xitoydagagi balalarning bir qismi boshlang'ich maktabga kirishdan oldin bolalar bog'chalarida tayyorlanadi. Xitoyda so'nggi 20 yil mobaynida har qaysi oila bittadan bolaga ega bo'lishi siyosati yurgizilishi sababli o'quvchilarning soni ancha kamaydi. Boshlang'ich maktab o'quv rejasiga 9 ta predmet: axloqiy tarbiya, ona tili, arifmetika, "Jamiyat" (tarix, geografiya), tabiatshunoslik, jismoniy tarbiya, ashula va musiqa, badiy tarbiya, mehnat ta'limi kiritilgan. Mana Shu asosiy o'quv predmetlaridan tashqari, haftada 6-8 soat faoliyatning har xil turlariga: mustaqil tayyorlanishga, (1-2 soat), sinf majlislari o'tkazishga (1 soat), sport o'yinlariga (2-3 soat), qiziqishlar bo'yicha mashg'ulotlarga (2 soat) ajratiladi [3 internet].

Janubiy Koreyada ta'limgiz sohasiga e'tiborning naqadar kattalagini quyidagi misoldan ham ko'rsak bo'ladi: Soliqlar tizimida ta'limi soliq joriy qilingan: ishlab chiqaruvchilar foydaning ma'lum foizini ta'limgiz sohasiga o'tkazadi. Davlat byudjetining 24 foizi ta'limga sarflanadi. Mamlakat prezidenti (u xalq ta'limi davlat kengashini boshqaradi) Shaxsan provintsiyalar ta'limgiz boshqarmalari (bizdagi xalq ta'limi boshqarmalari kabi) boshliqlarini tayinlaydi. Bu ham ushbu mamlakatda ta'limgiz tizimiga qanchalar zo'r ahamiyat berilishini ko'rsatib turibdi.

Dehlida "Dehli Education Akr" – "Dehli ta'limgiz qonuni" mavjud. Shahardagi ta'limgiz muassasalari ana Shu qonun asosida faoliyat yurgizadi. Mamlakat bo'yicha esa "Central Board of" – "o'rta ta'limgiz markaziy qo'mitasi" chiqargan yagona qonun amalda qo'llaniladi.

Tizim sifatli darslik, kitob va o‘quv qo‘llanmalar bilan yetarli darajada ta’minlangan. Darslik kitoblar yaratish uchun eng yaxshi olimlar guruhi tuzilgan bo‘lib, ular faqat mana Shu ish bilan mashg‘ul bo‘ladilar.

Ahamiyatlisi, ma’muriyat kam ta’minlangan oilalar farzandlarining ham Shu mактабда o‘qishi uchun imkoniyat yaratib bergan. O‘quvchilarning yigirma foizini kam ta’minlangan oilalarning o‘g‘il-qizlari tashkil etadi. Ular mакtab hisobidan o‘qitiladi<sup>21</sup>.

Germaniyaning hozirgi davr ta’lim tizimidagi asosiy muammosi sobiq gdrdagи ta’limni bir xil milliy me’yorga solishdan iboratdir. Buning uchun to‘la imkon bor Zотан, Germaniyada Shakllangan ta’lim tizimi, mazmun va uslublari, qарор topган, xодимлар таъyorlash va qayta таъyorlash tamoyili mavjud.

Avvalambor, shuni ta’kidlash kerakki, Germaniyada ta’lim davlat va jamiyat tomonidan e’tibor berilayotgan soha bo‘lib, u mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishga barakali hissa qо’shib kelmoqda.

O‘qish davlat mакtablarida tekin. Mакtab o‘quvchilariga o‘quv qo‘llanmasi, asosan darsliklar tekin ta’minlanadi. Ta’lim dastasini turli tashkilotlar, fondlarning xususiy mакtablari to‘ldiradi, ularga mahalliy hokimiyat tegishli moliyaviy yordamini beradi. Ammo davlatga tegishli bo‘lmagan xususiy mакtablar mamlakatda juda ham ozchilikni tashkil etadi.

Yaponiyada har qanday soha vakili o‘qituvchi bo‘la oladi, faqat sharti bor, o‘qituvchilik qilish uchun litsenziya olish kerak. Aks holda pedagogika oliygoхini bitirgan bo‘lsangiz ham o‘qituvchilik qila olmaysiz. Yaponiyada o‘qituvchilik litsenziyasini olishni o‘zi ham murakkab jarayon, hatto litsenziya olgandan so‘ng ham o‘qituvchi oddiy o‘qituvchi yordamchisi bo‘lib ishlab yuradi.

Asosan yoshi katta, nafaqaga chiqqan o‘qituvchilar Yaponiyada o‘zi ishlagan mакtabga kelib yosh o‘qituvchilarga ustozlik qilib yuradi, ularning darslarida o‘tirib kuzatadi, yosh o‘qituvchilar esa barchasi oldin faqat darsda kuzatuvchi bo‘lishadi<sup>22</sup>. Xorijliklar Yaponiyada faqat xorijiy til o‘qituvchisi bo‘la olishadi, boshqa fanlarga faqatgina yapon o‘qituvchilari olinadi, o‘ziga xos usulda ta’lim tizimini himoya qiladi.

Yangi oliygoхni bitirib kelib litsenziya olgan o‘qituvchilar 2500 dollar oylik bilan o‘z ishlarini boshlashadi, toifa degan narsa yo‘q, qancha ko‘p yil ishlasangiz, shuncha ko‘p oylik olaverasiz. Direktorlar 4500-5000 dollar atrofida oylik olishadi, bundan tashqari ijtimoiy, xorijlik o‘qituvchilardan litsenziya talab etilmaydi, lekin aynan pedagogika sohasida diplomga ega bo‘lishlari kerak.

<sup>21</sup> <http://library.ziyonet.uz>

<sup>22</sup> “Yaponiya ta’lim tizimining o‘ziga xosliklari”

Yana bir tomoni borki, shartnoma bo'yicha o'qituvchilar 08:30 dan 17:00 gacha ishlashlari kerak, lekin barcha o'qituvchilar soat 07:00 dan mакtabga kelib olishar ekan va 20:00, 21:00 gacha jonini berib ishlar ekan, undan ham qizig'i ularga hech kim qolib ishla demas ekan, o'zlarining tashabbuslari bilan shunaqa ishlashar ekan<sup>23</sup>.

Ha, shubhasiz yapon o'qituvchilari fidoiy, lekin beriladigan oylik va kuchli ijtimoiy himoya ularni boshqa ishga chalg'imasdan ishlashga undar ekan.

Boshlang'ich maktabda o'qituvchilar bolalarni tanqidga, ya'ni xulqlarini yomon tomonlarini, maktabdagи kamchilikni tanqid qilishni o'rgatadilar. Bundan ko'rinish turibdiki, o'qituvchi faqat ta'lim berish bilan cheklanib qolmay, bolaning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir etadi. Shuning uchun ham Yaponiyada o'qituvchi kasbiga katta e'tibor beriladi. Yaponiya rivojlangan davlatlar ichida o'qituvchining maoshi davlat rahbarlari maoshidan ham yuqori bo'lgan yagona davlatadir<sup>24</sup>.

Majburiy ta'lim. Ta'limning bu pog'onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi. 6 yillik boshlang'ich ta'lim va 3 yillik o'rta maktab 9 yillik majburiy ta'limni tashkil etadi va u bepuldir. Muhtoj oilalarning bolalari bepul nonushta, o'quv qurollari, tibbiy xizmat bilan ta'minlanadi. Zarur bo'lgan hollarda ularning oilalariga moddiy yordam ko'rsatiladi. Shu bilan birga Yaponiyada xususiy maktablar ham mavjud.

Yuqori o'rta maktab 10, 11, 12 -sinflarni o'z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi, kechki bo'limlari mavjud. O'quvchilarning 95 foizi kunduzgi maktablarda o'qiydi. Yaponiyada o'quv yili – 240 kun. Yozgi ta'til iyun oyining oxirida boshlanib, avgustda tugaydi. Darslar kuniga 7 soatdan o'tiladi<sup>25</sup>.

Yapon maktablari elektron hisoblash mashinalari va boshqa o'quv-texnika vositalari bilan to'la ta'minlanganligiga qaramay, mutaxassislarning fikricha, asosiy e'tibor o'qituvchi faoliyati va darslikka qaratilmog'i kerak. Ularning fikricha, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi jonli muloqot o'rnini har qanday takomillashgan mashina ham bosa olmaydi<sup>26</sup>.

Yaponiyada o'qituvchi kadrlash tayyorlash sifatiga juda katta talablar qo'yiladi. Bu talablar shundayki, mazkur kasbga iqtidorli va yo'nalishi to'g'ri kelmaydigan tasodifiy kishilarning kirib qolishiga yo'l qo'yilmaydi. Deyarli barcha darsliklar xususiy bosmaxonalarda chop etiladi. Ularni chop etishga mablag'ni

<sup>23</sup> "Yaponiya ta'lim tizimi va unga daxldor masalalarning olib borilishi" fayllar/org

<sup>24</sup> "Yaponiya ta'lim tizimining o'ziga xosliklari"

<sup>25</sup> L. Kravchenko, N.Bilyk, T. Plachynda. Professional Mobility of the Manager of a Secondary Education Institution as the Basis of His or Her Self-Development. 2021

<sup>26</sup> "Yaponiya ta'lim tizimi va unga daxldor masalalarning olib borilishi" fayllar/org

vazirlik ajratadi. Yuqorida qayd etilganidek, darsliklar boshlang‘ich va quyi o‘rta maktablarda bepul, yuqori pulli maktablarda esa pullidir. Darsliklar narxi shundayki, ularni xarid qilishga hammaning imkoniyati bor. Foydalilanilgan darsliklar pullik bo‘lsa ham, tekin bo‘lsa ham o‘quvchining o‘zida qoldiriladi.

O‘qituvchilar 4 yillik dorilfununlarda va 2 yillik kollejlarda tayyorlanadi. Bu o‘quv yurtlarining bitiruvchilariga birinchi va ikkinchi darajali guvohnoma beriladi. Maktab direktori bo‘lish uchun 1 darajali guvohnomaga ega bo‘lish shart.

Yapon o‘qituvchilarning jamiyatda tutgan obro‘-e’tibori katta. Binobarin ularning maoshlari ham yuqori, 74 foiz o‘qituvchi jamoa va kasb-korlik assotsiatsiyasiga a’zo.

O‘qituvchilar o‘zlariga ishonib topshirgan 35-40 o‘quvchining bilimi va tarbiyasi uchun javobgardirlar. Shu bois ular darsdan bo‘sh vaqtlarini o‘quvchilar, ularning ota-onalari bilan suhbatlarga, xonadonlarga tashrif ishlariga bag‘ishlaydilar.

Uslubiy ishlar tizimi modelini ishlab chiqishda biz uni tashkil etishning individual shakllariga alohida e’tibor qaratdik. Bu umumta’lim fanlari o‘qituvchilari, oliy ta’limi o‘qituvchilarining uslubiy faoliyatini oshirishga imkon beradi, natijada uslubiy faoliyatga butun pedagogik jamoa jalb etiladi va uning har bir a’zosi ma’lum darajada o‘zlariga yuklatilgan majburiyatlarni bajaradilar.

Uslubiy ishlar tizimining maqbul ishlashi uchun uslubiy ishlar tizimini boshqarishning tashkiliy modeli (UITBTM) ni ishlab chiqishga yaqqol extiyoj paydo buldi. Uni ishlab chiqishda biz modellashtirish mexanizmi sifatida boshqarishning texnologik funksiyalaridan foydalandik. Ya’ni rejalashtirish - quylgan masalaga muvofiq aniq faoliyat mazmunini olib berish va «Nima qilmoq kerak?» degan savolga javob topish; tashkil etish – o‘tkazilish joyi va vaqtiga ko‘ra uslubiy tadbirlarni asosli ravishda aniq taqsimlash, ya’ni «qayerda, qachon, qanday qilib» savollariga javob berish; muvofiqlashtirish - aniq ijrochini tanlash va tayyorlash, pedagogik jamoa a’zolari faoliyati muvofiqligini ta’minlash va «Kim qiladi?» savoliga javob topish; nazorat-axborot to‘plash, uni taxlil etish, nazorat natjalari bo‘yicha xulosalar chiqarish, «Kim nazorat qiladi va natijalar qayerda muxokama etiladi?» savoliga javob berish; to‘g‘rilash – o‘quv-boshqaruva jarayonlari oqimiga uzgartirishlar kiritish, uzlusiz boshqarishga imkon berish; pedagogik taxlil o‘quv uslubiy ishlar jarayonini va uslubiy ishlarni takomillashtirishning «xarakatlantiruvchi» vositasi hisoblanadi.

Uslubiy ishlar tizimini uzlusiz boshqarish uchun «Uslubiy ishlarning yagona rejasi» dan foydalilanadi. Unda uslubiy tadbirlarni har xaftada, har oyda, har chorakda o‘tkazish nazarda tutilgan. Shuning uchun ham, uslubiy ishlarni

rejalashtirishning kalendar «qadami» bir xafta, bir oy yoki chorak qilib belgilanadi. Umuman, rejalahtirish «qadami» turlicha (bir kun, xafta, oy, chorak, semestr, olti oy, bir yil) qilib belgilanishi mumkin. Chunki o‘quv mashgulotlari jadvali har kun uchun tuziladi va rejalahtirish «qadami» bir kun qilib belgilanadi.

Biz ishlab chiqqan uslubiy ishlarni tizimini boshqarishning tashkiliy modelida uslubiy ishlarni tashkil etishning individual, guruhiy va jamoaviy turlari hamda an'anaviy va noan'anaviy shakllari aks etgan.

Uslubiy ishlarni boshqarishning tashkiliy modeli namunaviy bo‘lib, uni oliy ta’lim muassasalarida joriy etishda ijodiy yondashish kerak. Uslubiy ishlarning shakllarini tanlash, ularni tashkil etish tartibi va unga mas’ul shaxslarni belgilashda ta’lim muassasasidagi shart-sharoit, imkoniyat, o‘qituvchilar saloxiyati va boshqa omillar e’tiborga olinishi, unga ilmiy-uslubiy ishlarni muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan tuzatish va o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Oliy ta’lim tiziminining o‘ziga xos shart-sharoitlarda o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonida umumta’lim, oliiy va ixtisoslik fanlari o‘qituvchilari, o‘quv ustalari, tarbiyachilar va boshka xodimlardan tashkil topgan pedagogik jamoa faoliyati birligiga erishish muxim axamiyatga ega, chunki tarbiyaviy ishlarni darajasi, nazariy va amaliy ta’lim natijalari, pedagogik jamoaning barqarorligi, ya’ni oliy ta’lim tizimida ishidagi sifatiy ko‘rsatkichlar pedagogik jamoa faoliyati birligiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Pedagogik jamoaning muhim belgisi bu - faoliyat birligidir.

Pedagogik jamoaning faoliyati birligi tizimi oliy ta’limdagи o‘quv-tarbiya ishlarning barcha jabxalari va yo‘nalishlarida zarur. Ya’ni o‘quv tartibini ta’minalash masalalarida, dars va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda, bitiruv oldi ishlab chiqarish amaliyotini o‘tkazishda, darsdan tashqari tadbirlarda va boshqa ishlarda muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa** qilib shuni aytish mumkinki, Yaponiya ta’lim tizimi nisbatan yosh bo‘lishiga qaramay, u nafaqat Tinch okeani mintaqasida, balki butun dunyoda eng yaxshilaridan biridir. Yaponlar pedagogika fanining barcha so‘nggi yutuqlarini yapon jamiyatini qurishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan sintez qilib, o‘z mamlakatlarini nafaqat ta’sirchan iqtisodiy o‘sish sur’atlari, balki ancha yuqori turmush darajasini ham ta’minalay oldilar. Ular avtomatlashtirish darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatda samarali ta’lim tizimi nafaqat majburiy, balki hayotiy muhim ekanligini ham boshqalardan oldin anglab yetdi. Binobarin, ishonch bilan aytishimiz mumkinki, bu mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishidagi asosiy ulush ta’lim tizimining yaxshi qurilgani natijasidir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ahliddinov R.Sh. O'zbekiston Respublikasida maktab ta'limi tizimini boshqarish xususiyatlari: nazariy-metodologik jihatlar. – Toshkent 1997 yil
2. Ahliddinov R.Sh. "Maktab ta'limining ijtimoiy-pedagogik boshqaruvi" –Xalq ta'limi- Toshkent 1998.
3. Bekniyozov N. M. O'qituvchi nimalarni bilishi kerak. "Fan va texnologiya" 2016 yil.
4. "Bilimlarni boshqarish bilan tanishish". www.unc.edu. Chapel Hilldagi Shimoliy Karolina universiteti. Asl nusxasidan arxivlangan 2007 yil 19 mart. Olingan 11 sentyabr 2014.
5. Jirard, Jon P.; Jirard, JoAnn L. (2015). "Bilimlarni boshqarishni aniqlash: qo'llaniladigan to'plamga" (PDF). Amaliy bilimlarni boshqarish bo'yicha onlayn jurnal. 3 (1): 14.

**"Innovations in Science and Technologies"**